


UZSTAT
ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o‘rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o‘zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o‘zini o‘zi ta’minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma’lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma’naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog‘liq.

Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo‘lib, u yerda yakka iste’molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o‘zaro aloqada bo‘ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug‘ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma’lumki, bozor tizimida hamma narsa o‘z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo‘lsak, unda o‘z-o‘zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta’minlaydigan keng tizimga ega bo‘lamiz.

O‘zbekistondagi korxonalar faoliyati O‘zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o‘z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*



# 1- bo‘lim. Andijon viloyati bo‘yicha korxona va tashkilotlar soni

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2021- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra*

### Yillar kesimida soni




### Yillar kesimida o‘sish sur’ati




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **331** | Sanoat **1 186** | Qurilish **304** |
| Savdo **1 587** | Tashish va saqlash **105** | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **181** |
| Axborot va aloqa **100** | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish **109** | Boshqa turlar **458** |

### Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 091 | Oltinko‘l t. | 184 |
| Asaka t. | 425 | Xo‘jaobod t. | 184 |
| Andijon t. | 386 | Marhamat t. | 175 |
| Baliqchi t. | 339 | Jalaquduq t. | 175 |
| Shahrixon t. | 303 | Bo‘ston t. | 167 |
| Paxtaobod t. | 200 | Buloqboshi t. | 153 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 195 | Xonobod sh. | 106 |
| Izboskan t. | 192 | Ulug‘nor t. | 86 |

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 361 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko‘rsatkich 1 545 taga kamaydi va o‘sish sur’ati 73,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o‘tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarda, Andijon tumani (16 ta) va Xonobod (6 ta) shahrida sezilarli o‘sish kuzatildi.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 13 323 |
| Asaka t. | 3 861 |
| Shahrixon t. | 2 793 |
| Andijon t. | 2 732 |
| Baliqchi t. | 2 093 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 2 032 |
| Oltinko‘l t. | 1 908 |
| Izboskan t. | 1 846 |
| Marhamat t. | 1 683 |
| Paxtaobod t. | 1 620 |
| Jalaquduq t. | 1 571 |
| Xo‘jaobod t. | 1 566 |
| Buloqboshi t. | 1 170 |
| Bo‘ston t. | 1 022 |
| Xonobod sh. | 803 |
| Ulug‘nor t. | 751 |

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o‘tgan yilning mos davriga (35 236 ta) nisbatan 5 538 taga oshib, o‘sish sur’ati 115,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o‘tgan yilga nisbatan sezilarli o‘sishi Andijon shahri (1 526 ta), Asaka (574 ta), Andijon (537 ta), Baliqchi (341 ta) va Shahrixon (318 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich savdo sohasida – 2 207 ta, sanoat – 1 373 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 391 taga to‘g‘ri kelib, axborot va aloqa sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 83 tani tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| 2 699 | 116,9 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 9 401 | 117,1 % | Sanoat |
| 3 362 | 112,4 % | Qurilish |
| 11 779 | 123,1 % | Savdo |
| 1 400 | 109,0 % | Tashish va saqlash |
| 1 970 | 114,7 % | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| 618 | 115,5 % | Axborot va aloqa |
| 989 | 119,2 % | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish |
| 8 556 | 107,3 % | Boshqa turlar |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 1 043 |
| Asaka t. | 406 |
| Andijon t. | 368 |
| Baliqchi t. | 330 |
| Shahrixon t. | 296 |
| Paxtaobod t. | 193 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 193 |
| Izboskan t. | 187 |
| Oltinko‘l t. | 179 |
| Xo‘jaobod t. | 179 |
| Marhamat t. | 170 |
| Jalaquduq t. | 170 |
| Bo‘ston t. | 151 |
| Buloqboshi t. | 151 |
| Xonobod sh. | 105 |
| Ulug‘nor t. | 81 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 330 |
| Sanoat | 1 186 |
| Qurilish | 304 |
| Savdo | 1 587 |
| Tashish va saqlash | 105 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 181 |
| Axborot va aloqa | 100 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 109 |
| Boshqa turlar | 300 |

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 50 foizi yangi tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o‘tgan yilga nisbatan Andijon tumanida (26 taga) va Xonobod shahrida (8 taga) sezilarli o‘sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o‘sish sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (16 taga) hamda axborot va aloqa sohasida (14 taga) o‘sish kuzatildi.

5

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 35 749 tasi yoki 87,7 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’atlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 117,7 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o‘sish savdo (123,1 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (120,9 foiz) hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (117,1 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lsa, hududlar kesimida esa Andijon (126,9 foiz), Paxtaobod (123,8 foiz), Bo‘ston (123,3 foiz), Baliqchi (122,9 foiz) va Ulug‘nor (122,3 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 12 190 |
| Asaka t. | 3 446 |
| Andijon t. | 2 435 |
| Shahrixon t. | 2 416 |
| Baliqchi t. | 1 784 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 1 700 |
| Oltinko‘l t. | 1 641 |
| Izboskan t. | 1 582 |
| Marhamat t. | 1 442 |
| Paxtaobod t. | 1 356 |
| Xo‘jaobod t. | 1 348 |
| Jalaquduq t. | 1 280 |
| Buloqboshi t. | 981 |
| Bo‘ston t. | 841 |
| Xonobod sh. | 709 |
| Ulug‘nor t. | 598 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2 671 |
| Sanoat | 9 382 |
| Qurilish | 3 360 |
| Savdo | 11 778 |
| Tashish va saqlash | 1 397 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 966 |
| Axborot va aloqa | 614 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 913 |
| Boshqa turlar | 3 668 |

# 6 Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 039 | Oltinko‘l t. | 179 |
| Asaka t. | 406 | Xo‘jaobod t. | 178 |
| Andijon t. | 367 | Jalaquduq t. | 170 |
| Baliqchi t. | 330 | Marhamat t. | 168 |
| Shahrixon t. | 295 | Buloqboshi t. | 151 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 193 | Bo‘ston t. | 151 |
| Paxtaobod t. | 192 | Xonobod sh. | 104 |
| Izboskan t. | 186 | Ulug‘nor | 81 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **330** | Sanoat **1 185** | Qurilish **304** |
| Savdo **1 587** | Tashish va saqlash **105** | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **181** |
| Axborot va aloqa **100** | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish **109** | Boshqa turlar **289** |

Ma’lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Pandemiya davrida tadbirkorlik subyektlari davlat iqtisodiyotining barqaror ishlashiga munosib hissasini qo‘shib kelayotganligini alohida ta’kidlash lozim.

2021- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining o‘sish sur’ati 2017- yilning mos davriga nisbatan 2,3 martaga oshgan.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Soni | Faoliyat turi |
|---|---|
| 2 668 | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 9 324 | Sanoat |
| 3 353 | Qurilish |
| 11 759 | Savdo |
| 1 390 | Tashish va saqlash |
| 1 966 | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| 614 | Axborot va aloqa |
| 910 | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish |
| 3 633 | Boshqa turlar |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 12 126 | Marhamat t. | 1 437 |
| Asaka t. | 3 438 | Paxtaobod t. | 1 351 |
| Andijon t. | 2 425 | Xo‘jaobod t. | 1 343 |
| Shahrixon t. | 2 411 | Jalaquduq t. | 1 277 |
| Baliqchi t. | 1 782 | Buloqboshi t. | 980 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 1 695 | Bo‘ston t. | 838 |
| Oltinko‘l t. | 1 636 | Xonobod sh. | 704 |
| Izboskan t. | 1 579 | Ulug‘nor t. | 595 |

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 5 373 taga ko‘paygan va 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sdi va o‘sish sur’ati 117,8 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o‘sish savdoda (123,2 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda (120,8 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (117,3 foiz) va sanoat (117,2 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lsa, hududlar kesimida Andijon (127,0 foiz), Paxtaobod (123,8 foiz), Bo‘ston (123,6 foiz), Baliqchi (122,9 foiz) va Ulug‘nor (122,4 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Yillar kesimida o‘sish sur’ati







### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Asaka t. | 396 |
| Andijon sh. | 250 |
| Andijon t. | 232 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 217 |
| Shahrixon t. | 208 |
| Izboskan t. | 208 |
| Paxtaobod t. | 194 |
| Baliqchi t. | 171 |
| Marhamat t. | 138 |
| Oltinko‘l t. | 135 |
| Ulug‘nor t. | 123 |
| Jalaquduq t. | 120 |
| Bo‘ston t. | 109 |
| Buloqboshi t. | 82 |
| Xo‘jaobod t. | 81 |
| Xonobod sh. | 35 |

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasi koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlari orasidagi eng kam zarar ko‘rib faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoqlardan biridir.

Hukumatimiz tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan alohida e’tibor sababli, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davriga nisbatan qariyb bir yarim baravar ko‘paydi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan esa 391 taga oshgan.

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 3 315 |
| Asaka t. | 1 001 |
| Andijon t. | 757 |
| Shahrixon t. | 701 |
| Xo‘jaobod t. | 490 |
| Oltinko‘l t. | 436 |
| Baliqchi t. | 373 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 371 |
| Jalaquduq t. | 332 |
| Izboskan t. | 315 |
| Marhamat t. | 286 |
| Buloqboshi t. | 273 |
| Paxtaobod t. | 260 |
| Bo‘ston t. | 208 |
| Xonobod sh. | 173 |
| Ulug‘nor t. | 110 |

**9 042**
117,1 %
Ishlab chiqarish sanoati

**147**
125,6 %
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**39**
97,5 %
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

**173**
115,3 %
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Qayd etish kerakki, sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so‘nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 175,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 23,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilga nisbatan o‘sish 117,1 %), 1,6 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 125,6 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 97,5 %) va 1,8 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 115,3 %) tashkil etgan.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 1 414 |
| Asaka t. | 272 |
| Andijon t. | 239 |
| Shahrixon t. | 222 |
| Marhamat t. | 149 |
| Izboskan t. | 143 |
| Oltinko'l t. | 138 |
| Baliqchi t. | 120 |
| Bo'ston t. | 104 |
| Paxtaobod t. | 96 |
| Qo'rg'ontepa t. | 93 |
| Xo'jaobod t. | 91 |
| Jalaquduq t. | 81 |
| Buloqboshi t. | 80 |
| Xonobod sh. | 69 |
| Ulug'nor t. | 51 |




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 116,2 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,8 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 7,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,5 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,2 foiz ulushni va 116,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 3 516 |
| Asaka t. | 1 050 |
| Shahrixon t. | 791 |
| Baliqchi t. | 760 |
| Andijon t. | 727 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 661 |
| Oltinko‘l t. | 653 |
| Izboskan t. | 606 |
| Paxtaobod t. | 565 |
| Jalaquduq t. | 522 |
| Marhamat t. | 496 |
| Xo‘jaobod t. | 451 |
| Buloqboshi t. | 320 |
| Bo‘ston t. | 256 |
| Xonobod sh. | 211 |
| Ulug‘nor t. | 194 |

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo — 7 653, 121,2 %

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo — 3 291, 127,3 %

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash — 835, 124,1 %

Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishida 65,0 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 121,2 foizga o‘sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 27,9 foiz ulushni tashkil etib, 127,3 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 7,1 foiz ulushni tashkil etib, 124,1 foizga o‘sgan.

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 825 |
| Asaka t. | 175 |
| Andijon t. | 134 |
| Xonobod sh. | 106 |
| Shahrixon t. | 96 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 83 |
| Oltinko‘l t. | 77 |
| Ulug‘nor t. | 71 |
| Izboskan t. | 61 |
| Paxtaobod t. | 60 |
| Baliqchi t. | 55 |
| Buloqboshi | 54 |
| Jalaquduq t. | 51 |
| Xo‘jaobod t. | 46 |
| Marhamat t. | 42 |
| Bo‘ston t. | 34 |

135

Yashash bo‘yicha xizmatlar

1 835

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 137,2 foizga oshgan bo‘lib, viloyatdagi jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo‘yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,1 foiz ulushini tashkil etdi.

# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 236 |
| Asaka t. | 52 |
| Shahrixon t. | 48 |
| Baliqchi t. | 38 |
| Marhamat t. | 36 |
| Xo‘jaobod t. | 35 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 34 |
| Buloqboshi t. | 32 |
| Andijon t. | 23 |
| Oltinko‘l t. | 21 |
| Jalaquduq t. | 18 |
| Izboskan t. | 15 |
| Paxtaobod t. | 12 |
| Xonobod sh. | 9 |
| Ulug‘nor t. | 5 |
| Bo‘ston t. | 4 |




2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra nashriyotchilik faoliyati, kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 12,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 119,7 foizga oshgan.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 46,4 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,1 foizga o‘sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 40,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,5 foizga o‘sgan.

# 14 Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 361 |
| Asaka t. | 86 |
| Shahrixon t. | 82 |
| Andijon t. | 61 |
| Izboskan t. | 56 |
| Baliqchi t. | 47 |
| Marhamat t. | 44 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 42 |
| Oltinko‘l t. | 41 |
| Xo‘jaobod t. | 39 |
| Paxtaobod t. | 37 |
| Jalaquduq t. | 35 |
| Buloqboshi t. | 30 |
| Xonobod sh. | 15 |
| Bo‘ston t. | 8 |
| Ulug‘nor t. | 5 |




2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 97,6 foizini sog‘liqni saqlash sohasi yo‘nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 119,7 foizga o‘sgan.

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining 1,7 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni tashkil etgan.

# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 598 |
| Asaka t. | 133 |
| Andijon t. | 89 |
| Shahrixon t. | 70 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 67 |
| Baliqchi t. | 55 |
| Oltinko‘l t. | 54 |
| Izboskan t. | 52 |
| Xo‘jaobod t. | 47 |
| Marhamat t. | 47 |
| Paxtaobod t. | 44 |
| Buloqboshi t. | 39 |
| Jalaquduq t. | 39 |
| Bo‘ston t. | 36 |
| Ulug‘nor t. | 15 |
| Xonobod sh. | 15 |

| | | |
|---|---|---|
| Quruqlikdagi va quvur transporti | 1 045 | 109,8 % |
| Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | 327 | 105,1 % |
| Pochta va kuryerlik faoliyati | 26 | 130,0 % |
| Havo transporti | 2 | 2,0 marta |

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 109,8 foizga, ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishida 105,1 foizga, pochta va kuryerlik yo‘nalishida 130,0 foizga oshgan. Havo transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,0 martaga oshgan.

# Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tadbirkorlik subyektlari soni

| | | |
|---|---|---|
| **27 133** | **5 214** | **2 877** |
| 121,4 % | 102,4 % | 120,2 % |
| mas’uliyati cheklangan jamiyat | xususiy korxonalar | oilaviy korxonalar |
| **169** | **38** | **318** |
| 88,5 % | 102,7 % | 101,3 % |
| unitar korxonalar | aksiyadorlik jamiyati | boshqalar |

## Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;

-tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;

-idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;

-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2021- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **278** | Sanoat **987** | Qurilish **298** |
| Savdo **1 393** | Tashish va saqlash **94** | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **149** |
| Axborot va aloqa **97** | Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **104** | Boshqa turlar **269** |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 973 | Marhamat t. | 159 |
| Asaka t. | 335 | Jalaquduq t. | 158 |
| Andijon t. | 304 | Xo'jaobod t. | 157 |
| Baliqchi t. | 299 | Qo'rg'ontepa t. | 137 |
| Shahrixon t. | 235 | Buloqboshi t. | 135 |
| Paxtaobod t. | 187 | Xonobod sh. | 98 |
| Izboskan t. | 169 | Ulug'nor t. | 79 |
| Oltinko'l t. | 166 | Bo'ston t. | 78 |

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 9 490 |
| Asaka t. | 2 061 |
| Andijon t. | 1 894 |
| Shahrixon t. | 1 854 |
| Izboskan t. | 1 342 |
| Baliqchi t. | 1 286 |
| Oltinko'l t. | 1 263 |
| Xo'jaobod t. | 1 182 |
| Qo'rg'ontepa t. | 1 177 |
| Marhamat t. | 1 154 |
| Paxtaobod t. | 1 098 |
| Jalaquduq t. | 1 062 |
| Buloqboshi t. | 744 |
| Xonobod sh. | 558 |
| Ulug'nor t. | 498 |
| Bo'ston t. | 470 |

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 35 749 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 27 133 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, o'sish axborot va aloqa (129,6 foiz), savdo (128,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (125,7 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (122,8 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Andijon (131,9 foiz), Baliqchi (131,2 foiz), Paxtaobod (130,7 foiz) va Ulug'nor (127,7 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| 1 833 | 122,8 % | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi |
| 6 913 | 119,6 % | Sanoat |
| 2 873 | 114,8 % | Qurilish |
| 9 033 | 128,2 % | Savdo |
| 1 276 | 109,8 % | Tashish va saqlash |
| 1 301 | 118,1 % | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar |
| 455 | 129,6 % | Axborot va aloqa |
| 729 | 125,7 % | Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish |
| 2 720 | 116,4 % | Boshqa turlar |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| **435** Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | **1 104** Sanoat | **409** Qurilish |
| **1 919** Savdo | **78** Tashish va saqlash | **339** Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| **139** Axborot va aloqa | **162** Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | **629** Boshqa turlar |

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 664 | Oltinko‘l t. | 202 |
| Asaka t. | 810 | Jalaquduq t. | 169 |
| Baliqchi t. | 418 | Xo‘jaobod t. | 139 |
| Shahrixon t. | 324 | Buloqboshi t. | 124 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 313 | Izboskan t. | 123 |
| Andijon t. | 246 | Bo‘ston t. | 97 |
| Marhamat t. | 243 | Xonobod sh. | 82 |
| Paxtaobod t. | 205 | Ulug‘nor t. | 55 |

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 2,4 foizga o‘sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo‘yicha o‘sish sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda – 105,9 foiz, savdoda – 104,7 foiz, sanoatda – 101,8 foiz hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 100,3 foizni tashkil etgan. Hududlar kesimida esa Xo‘jaobod (104,5 foiz), Asaka (104,4 foiz), Qo‘rgo‘ntepa (104,3 foiz), Shahrixon (104,2 foiz), Andijon (103,4 foiz) va Buloqboshi (103,3 foiz) tumanlarida yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| 344 | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 1 238 | Sanoat |
| 20 | Qurilish |
| 734 | Savdo |
| 28 | Tashish va saqlash |
| 320 | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| 11 | Axborot va aloqa |
| 18 | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish |
| 164 | Boshqa turlar |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 808 | Izboskan t. | 94 |
| Asaka t. | 537 | Xonobod sh. | 55 |
| Andijon t. | 270 | Baliqchi t. | 53 |
| Bo‘ston t. | 260 | Jalaquduq t. | 35 |
| Shahrixon t. | 220 | Ulug‘nor t. | 35 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 185 | Paxtaobod t. | 32 |
| Oltinko‘l t. | 158 | Marhamat t. | 26 |
| Buloqboshi t. | 98 | Xo‘jaobod t. | 11 |

2021- yil 1- sentabr holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 877 tani yoki ro‘yxatdan o‘tganlarning 94,3 foizini tashkil etdi. O‘tgan yilga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o‘sishi 120,2 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda qurilish (133,3 foiz), tashish va saqlash (133,3 foiz), savdo (122,9 foiz) hamda sanoat (122,2 foiz) sohalarida eng yuqori o‘sish kuzatilgan bo‘lib, hududlar kesimida esa Qo‘rg‘ontepa (139,7 %), Shahrixon (131,7 %), Baliqchi (129,3 %), Oltinko‘l (125,4 %), Jalaquduq (125,0 %) va Andijon (125,5 %) tumanlarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish kuzatilgan.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 378 tani tashkil etdi. O‘tgan yilga nisbatan ularning soni 114,9 foizga, ya’ni 49 donaga ko‘paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o‘sish sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (140,0 foiz), savdo (131,0 foiz), qurilish (119,0 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (111,1 foiz) sohalariga to‘g‘ri kelib, hududlar kesimida esa Qo‘rg‘ontepa (142,9 foiz), Buloqboshi (141,7 foiz), Jalaquduq (136,4 foiz), Andijon (128,0 foiz), Oltinko‘l (123,5 foiz) hamda Xo‘jaobod (121,4 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 150 |
| Andijon t. | 32 |
| Shahrixon t. | 27 |
| Asaka t. | 21 |
| Oltinko‘l t. | 21 |
| Xonobod sh. | 19 |
| Buloqboshi t. | 17 |
| Xo‘jaobod t. | 17 |
| Jalaquduq t. | 15 |
| Marhamat t. | 14 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 10 |
| Paxtaobod t. | 8 |
| Baliqchi t. | 7 |
| Bo‘ston t. | 7 |
| Izboskan t. | 7 |
| Ulug‘nor t. | 6 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| 24 | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 208 | Sanoat |
| 25 | Qurilish |
| 55 | Savdo |
| 4 | Tashish va saqlash |
| 10 | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| 4 | Axborot va aloqa |
| 7 | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish |
| 41 | Boshqa turlar |

## Davlatlar kesimida, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| | 2021 | 2020 | |
|---|---|---|---|
| Rossiya | 86 | 70 | 122,9 % |
| AQSH | 2 | 2 | 100,0 % |
| Germaniya | 3 | 2 | 150,0 % |
| Xitoy | 78 | 70 | 111,4 % |
| Turkiya | 43 | 36 | 119,4 % |
| Janubiy Koreya | 47 | 49 | 95,9 % |
| Ozarbayjon | 5 | 5 | 100,0 % |
| Turkmaniston | 1 | 1 | 100,0 % |
| Tojikiston | 3 | 1 | 3,0 marta |
| Qozog‘iston | 9 | 6 | 150,0 % |
| Qirg‘iz R. | 42 | 35 | 120,0 % |
| boshqalar | 59 | 52 | 113,5 % |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 267 tasi qo‘shma korxonalar, 111 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri –** axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan –** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan –** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Yangi tashkil etilgan –** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi –** ma'lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar –** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275**–** son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar –** norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.




**Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo‘mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.**

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.: 74 228-29-74**

MA